QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BAHRONOV BEKZOD ISLOM O‘G‘LI

PANJARADAGI IKKI VA UCH ZARRACHALI SISTEMALARGA MOS MODEL OPERATORLARNING SPEKTRAL XOSSALARI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2024

UDK: 517.984

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Bahronov Bekzod Islom o‘g‘li
Panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarning spektral xossalari…………………………………………………………….. 5

Бахронов Бекзод Ислом угли
Спектральные свойства модельных операторов, соответствующих системам двух и трех частиц на решетке …………………………………….. 21

Bahronov Bekzod Islom ugli
Spectral properties of model operators corresponding to systems of two and three particles on a lattice……………………………………………………... 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……………………………………………………. 43

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BAHRONOV BEKZOD ISLOM O‘G‘LI

PANJARADAGI IKKI VA UCH ZARRACHALI SISTEMALARGA MOS MODEL OPERATORLARNING SPEKTRAL XOSSALARI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/FM906 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rasulov To‘lqin Husenovich** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Mo‘minov Zahriddin Eshqobilovich** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent
	Xamrayev Axror Yusupovich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.FM.70.04-raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “_____” ____________ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225-34-13; faks: (+998 75) 221-00-56, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, 2-bino 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225-34-13; faks: (+998 75) 221-00-56, e-mail: kasu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_____” ____________ kuni tarqatildi
(2024-yil “______” ______________ dagi ______ raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Shoimqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

Sh.D. Nodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.f.d. (PhD), dotsent

A.A. Imomov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan aksariyat izlanishlar panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarning spektral xossalarini aniqlashga olib kelinadi. Bunda ikki zarrachali sistemaga mos model operator spektri haqidagi natijalardan foydalanib uch zarrachali sistemaga mos model operator muhim va diskret spektrlarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Uch zarrachali sistemaga mos model operatorning muhim spektri va xos qiymatlarining mavjudligi bilan bog‘liq masalalar qattiq jismlar fizikasi, kvant maydon nazariyasi va boshqa ko‘plab sohalardagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarga oid tadqiqotlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Dunyoda panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarning muhim spektri va xos qiymatlarining mavjudligini o‘rganishga doir ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, ikki zarrachali sistemaga mos Fridrixs modeli uchun bo‘sag‘aviy hodisalarni tahlil qilish, ulardan foydalanib sonli tasvirni tadqiq qilish, uch zarrachali sistemaga mos model operator muhim spektrining tuzilishini aniqlash, xos qiymatlar sonining chekli yoki cheksiz bo‘lish shartlarini topish, muhim spektr ichida joylashgan xos qiymatlarni aniqlashga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarning xossalarini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarning muhim spektrini aniqlash va xos qiymatlarining mavjudligiga oid salmoqli natijalarga erishildi. “Algebra va funksional analiz, differensial tenglama va matematik fizika, dinamik tizimlar nazariyasi, geometriya va topologiya, ehtimollik nazariyasi va matematik statistika, amaliy matematika va matematik modellashtirish” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. Bu borada panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarning spektral nazariyasini rivojlantirish, uch zarrachali sistemasiga mos model operatorning muhim spektri joylashuv o‘rni va tuzilishini topish hamda uning xos qiymatlari mavjudligini ko‘rsatish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ–huquqiy hujjatlarda belgilangan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlar spektral nazariyasiga oid tadqiqotlar S. Albeverio, G.F. Dell’Antonio, S.N. Laqayev, Z.E. Mo‘minov, T.H. Rasulov, Yu.X. Eshkabilov va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan. Hozirgi vaqtda panjaradagi uch zarrachali sistemaga mos model operator xos qiymatlari sonini tadqiq qilish masalasi diskret Shryodinger operatori tipidagi model operatorlar spektral nazariyasining chuqur o‘rganilayotgan obyektlaridan biri hisoblanadi. Bunday turdagi operatorlar spektral tahlilidagi asosiy masalalardan biri uning muhim spektridan tashqarida yotuvchi kamida bitta yoki cheksiz sondagi xos qiymatlar mavjudligini o‘rganish masalasidir. Cheksiz sondagi xos qiymatlarning mavjudligi dastlab uchta zarrachalar sistemasi uchun V.N. Yefimov tomonidan o‘rganilgan hamda keyinchalik Yefimov hodisasi deb atalgan. Ushbu hodisa mavjudligining qat’iy matematik isboti dastlab D.R. Yafayev tomonidan keltirilgan. Keyinchalik Yu.N. Ovchinnikov, I.M. Sigal, H. Tamura, A.V. Sobolev va boshqa olimlar tomonidan uch zarrachali uzluksiz Shryodinger operatori uchun Yefimov hodisasining mavjudligi o‘rganilgan.

Qattiq jismlar fizikasi, shuningdek, panjaraviy maydon nazariyasida $\mathbb{R}^d$ Evklid fazosidagi uch zarrachali Shryodinger operatorining panjaraviy analogi bo‘lgan diskret Shryodinger operatori deb ataluvchi operatorlar paydo bo‘ladi. Dastlab S.N. Laqayev tomonidan uch o‘lchamli panjaradagi o‘zaro juft-jufti bilan kontakt ta’sirlashuvchi uchta ixtiyoriy va uchta bir xil zarrachali sistemalar uchun Yefimov hodisasining mavjudligi matematik nuqtai nazardan qat’iy isbotlangan.

M.E. Mo‘minovning ishida panjaradagi uchta ixtiyoriy zarrachalar sistemasiga mos gamiltonian muhim spektrining bo‘shlig‘ida cheksiz sondagi xos qiymatlar mavjudligi isbotlangan.

Yu.X. Eshkabilovning ishida Xabbard modelida vujudga keluvchi, uch zarrachali model diskret Shryodinger operatori uchun cheksiz sondagi xos qiymatlar mavjudligi o‘rganilgan. Bunda o‘z-o‘ziga qo‘shma chegaralangan operatorlar uchun minimaks prinsipi usullari va musbat integral operatorlar xossalaridan foydalanilgan.

Ushbu dissertatsiya ishi panjaradagi uchta zarrachalar sistemasiga mos model operatorlar uchun oldin o‘rganilmagan muhim spektrdan tashqarida yoki ichida joylashgan xos qiymatlarning mavjudligini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2017-2026-yillarga mo‘ljallangan M.01.2017-raqamli “Chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi” ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Fridrixs modeli sonli tasviri va spektri ustma-ust tushish shartlarini ko‘rsatish, panjaradagi uch zarrachali sistemaga mos model operator muhim spektrining tuzilishini aniqlash va uning xos qiymatlari mavjud bo‘ladigan shartlarni topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

panjaradagi ikki zarrachali sistemaga mos Fridrixs modelining xos qiymatlari soni va joylashuv o‘rnini, bo‘sag‘aviy xos qiymat va virtual sathlar mavjud bo‘lish shartlarini aniqlash;

Fridrixs modelining sonli tasviri tuzilishini ko‘rsatish, sonli tasvir yopiq to‘plam bo‘ladigan hamda spektr bilan ustma-ust tushish shartlarini topish;

panjaradagi uchta zarrachalar sistemasiga mos model operator muhim spektrining ikki va uch zarrachali tarmoqlari joylashuv o‘rnini kanal operator spektri yordamida aniqlash;

ikki o‘lchamli qo‘zg‘alishga ega Fridrixs modellari tenzor yig‘indisi ko‘rinishidagi model operator muhim spektri tarmoqlarining tuzilishi tavsiflash va xos qiymatlarining mavjudligini ko‘rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlar olingan.

Tadqiqotning predmetini panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarning spektral xossalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik analiz, funksional analiz, o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorlarning spektral nazariyasi va zamonaviy matematik fizika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

panjaradagi ikki zarrachali sistemaga mos Fridrixs modeli uchun odatdagi xos qiymat, bo‘sag‘aviy xos qiymat va virtual sathlarning parametr funksiyalar hamda ta’sirlashish parametrlariga nisbatan mavjudlik shartlari topilgan;

panjaradagi ikki zarrachali sistemaga mos Fridrixs modeli sonli tasvirining tuzilishi aniqlangan, hamda uning spektri va sonli tasviri ustma-ust tushadigan shartlar bo‘sag‘aviy hodisalar nazariyasi metodlaridan foydalanib topilgan;

panjaradagi uchta zarrachalar sistemasiga mos model operator muhim spektrining joylashuv o‘rni hamda ikki va uch zarrachali tarmoqlari kanal operator spektri yordamida aniqlangan, muhim spektrni tashkil qiluvchi kesmalarning maksimal soni topilgan;

ikki o‘lchamli qo‘zg‘alishga ega Fridrixs modellari tenzor yig‘indisi ko‘rinishdagi model operator muhim spektri tarmoqlarining tuzilishi tavsiflangan va uning muhim spektridan tashqarida yoki ichida joylashgan xos qiymatlar mavjudligi Fridrixs modeli xos qiymatlari yordamida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorning spektral xossalari haqidagi xulosalar atom fizikasida, kvant mexanikasida eksperimental tadqiqotlarning sifat ko‘rsatkichini aniqlash hamda sonli hisoblashlarda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik analiz, funksional analiz, zamonaviy matematik fizika va o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorlarning spektral nazariyasi metodlaridan foydalangan holda aniq matematik tahlillar va isbotlashlar bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorlar nazariyasining kvant maydonlar nazariyasi va qattiq jismlar fizikasi paydo bo‘ladigan, xususan, ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlar bilan bog‘liq masalalarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Fridrixs modellarining xos qiymatlari soni va joylashuv o‘rni yordamida qattiq jismlar fizikasi va kvant mexanikasining panjaradagi uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarning xos qiymatlari mavjudligini ko‘rsatish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlar uchun olingan ilmiy natijalar asosida:

panjaradagi ikki zarrachali sistemaga mos Fridrixs modeli uchun xos qiymat, bo‘sag‘aviy xos qiymat va virtual sathlarning mavjudlik shartlari hamda Fridrixs modeli sonli tasvirining tuzilishi, uning spektri va sonli tasviri ustma-ust tushish shartlarini topishda qo‘llanilgan metodlardan Samarqand davlat universitetining 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F4-69 “Garmonik analiz, darajali geometriya va uning matematik fizika masalalariga tadbiqlari” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat universitetining 2023-yil 5-sentabrdagi 10-4386-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi ayrim qavariq bo‘lmagan gipersirtlarda aniqlangan o‘lchovlarning Furye transformatsiyasi uchun integrallanuvchanlik muammosini hal qilish imkonini bergan.

Ikki o‘lchamli qo‘zg‘alishga ega Fridrixs modeli spektri yordamida panjaradagi uchta zarrachalar sistemasiga mos model operator muhim spektrining joylashuv o‘rni va tuzilishi aniqlashda qo‘llanilgan metodlardan Rossiya Federatsiyasi Qozon Federal Universitetining RFFI 20-01-00535 raqamli fundamental loyihasida foydalanilgan (Qozon Federal Universitetining 2023-yil 22-sentabrdagi ma’lumotnomasi). Panjaradagi uchta zarrachalar sistemasiga mos model operator muhim va diskret spektrlari xossalaridan foydalanib chiziqli bo‘lmagan sistemani barqarorlashtirish masalasining yechimini tavsiflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 9 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, jami 12 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, 3 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 88 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyada tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi yoritilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqot ishlari farqi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Dastlabki ma’lumotlar**” deb ataladi. Ushbu bobda dissertatsiya ishining asosiy natijalarini bayon qilishda va isbotlashda foydalanilgan muhim tushunchalar, tasdiqlar va teoremalar keltirilgan. Bundan tashqari, panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarga mos model operatorlarning spektral xossalariga bag‘ishlangan ayrim maqolalarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Fridrixs modelining muhim va diskret spektrlari tadqiqi”** deb nomlanadi. Bu bobda panjaradagi ikki zarrachali sistemaga mos model operator (Fridrixs modeli) qaralib, uning xos qiymatlari soni va joylashuv o‘rni hamda ularning mavjudlik shartlari aniqlangan, bo‘sag‘aviy xos qiymat yoki virtual sath mavjud bo‘lishining zaruriy va yetarlilik shartlari topilgan, bundan tashqari bu operator sonli tasvirining tuzilishi tadqiq qilingan.

$\mathbb{T}^{\mathrm{d}} = (-\pi;\pi]^{\mathrm{d}}$ orqali $d\,(d \in \mathbb{N})$ – o‘lchamli torni, $L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})$ orqali $\mathbb{T}^{\mathrm{d}}$ torda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda kompleks qiymatli) funksiyalarning Hilbert fazosini belgilaymiz.

$L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})$ Hilbert fazosida

$$h_{\mu,\lambda} := h_{0,0} - \mu k_1 + \lambda k_2$$

kabi aniqlangan va Fridrixs modeli deb ataluvchi operatorni qaraymiz. Bunda $\mu,\lambda > 0$ haqiqiy sonlar ta’sirlashish parametrlari, $h_{0,0}$ operator ko‘paytirish operatori bo‘lib, $L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})$ Hilbert fazosida

$$(h_{0,0}g)(p) = u(p)g(p)$$

tenglik yordamida aniqlangan. $k_\alpha,\ \alpha = 1,2$ potensial operatorlari bo‘lib, $L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})$ Hilbert fazosida

$$(k_\alpha)g(p) = v_\alpha(p)\int_{\mathbb{T}^{\mathrm{d}}} v_\alpha(t)g(t)dt,\ \alpha = 1,2$$

kabi aniqlangan. Bu yerda $u(\cdot)$ va $v_\alpha(\cdot),\ \alpha = 1,2$ funksiyalar $\mathbb{T}^{\mathrm{d}}$ torda aniqlangan haqiqiy qiymatli uzluksiz funksiyalar bo‘lib, $v_1(\cdot)$ va $v_2(\cdot)$lar chiziqli bog‘lanmagan funksiyalar.

$L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})$ Hilbert fazosida aniqlangan $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli chiziqli, chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma operator bo‘ladi.

Ko‘rsatish mumkinki, $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining $-\mu k_1 + \lambda k_2$ qo‘zg‘alish operatori 2 o‘lchamli operator bo‘ladi. Chekli o‘lchamli qo‘zg‘alishlarga muhim spektrning o‘zgarmasligi haqidagi mashhur Veyl teoremasiga ko‘ra, $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining muhim spektri $h_{0,0}$ operatorning muhim spektri bilan ustma-ust tushadi. Bizga yaxshi ma'lumki, $h_{0,0}$ ko'paytirish operatori sof muhim spektrga ega bo'lib

$$\sigma_{\mathrm{ess}}(h_{0,0})=[E_1;E_2]$$

tenglik o'rinlidir. Bu yerda E_1 va E_2 sonlari

$$E_1=\min_{p\in\mathbb{T}^{\mathrm{d}}}u(p),\quad E_2=\max_{p\in\mathbb{T}^{\mathrm{d}}}u(p)$$

tengliklar yordamida aniqlanadi.

Oxirgi ikkita mulohazalardan $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining muhim spektri uchun

$$\sigma_{\mathrm{ess}}(h_{\mu,\lambda})=[E_1;E_2]$$

tenglikni hosil qilamiz.

Faraz qilaylik, $\mathbb{C}$ kompleks tekislik bo'lsin.

Har bir $\mu,\lambda>0$ sonlari uchun $\mathbb{C}\setminus[E_1;E_2]$ sohada regulyar bo'lgan

$$\Delta_{\mu,\lambda}(z):=\Delta_{\mu}^{(1)}(z)\Delta_{\lambda}^{(2)}(z)+\mu\lambda I_{12}^2(z)$$

funksiyani qaraymiz, bunda

$$\Delta_{\mu}^{(1)}(z):=1-\mu I_{11}(z),\quad \Delta_{\lambda}^{(2)}(z):=1+\lambda I_{22}(z),$$

$$I_{\alpha\beta}(z):=\int_{\mathbb{T}^{\mathrm{d}}}\frac{v_{\alpha}(t)v_{\beta}(t)}{u(t)-z}dt,\quad \alpha,\beta=1,2.$$

Odatda, $\Delta_{\mu,\lambda}(\cdot)$ funksiyaga $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeliga mos Fredgolm determinanti deyiladi hamda bu funksiya $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining diskret spektrini tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi lemma $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli xos qiymatlari va $\Delta_{\mu,\lambda}(\cdot)$ funksiya nollari orasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

1-lemma. *$z\in\mathbb{C}\setminus[E_1;E_2]$ soni $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining xos qiymati bo'lishi uchun $\Delta_{\mu,\lambda}(z)=0$ tenglik o'rinli bo'lishi zarur va yetarlidir.*

1-lemmadan $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining diskret spektri uchun

$$\sigma_{\mathrm{disc}}(h_{\mu,\lambda})=\{z\in\mathbb{C}\setminus[E_1;E_2]:\Delta_{\mu,\lambda}(z)=0\}$$

tenglik kelib chiqadi.

$h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli bilan birgalikda chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma bo'lgan $h_{\mu}^{(1)}$, $h_{\lambda}^{(2)}$ Fridrixs modellarini qaraymiz. Ular $L_2(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})$ Hilbert fazosida

$$h_{\mu}^{(1)}:=h_{0,0}-\mu k_1,\quad h_{\lambda}^{(2)}:=h_{0,0}+\lambda k_2$$

kabi aniqlangan operatorlardir.

Ta'kidlash joizki, $\Delta_{\mu}^{(1)}(\cdot)$, $\Delta_{\lambda}^{(2)}(\cdot)$ funksiyalar $h_{\mu}^{(1)}$, $h_{\lambda}^{(2)}$ operatorlarga mos keluvchi Fredgolm determinanti deyiladi va

$$\sigma_{\mathrm{disc}}(h_{\mu}^{(1)})=\{z\in\mathbb{C}\setminus[E_1;E_2]:\Delta_{\mu}^{(1)}(z)=0\};$$

$$\sigma_{\mathrm{disc}}(h_{\lambda}^{(2)})=\{z\in\mathbb{C}\setminus[E_1;E_2]:\Delta_{\lambda}^{(2)}(z)=0\};$$

$$\sigma(h_\mu^{(1)}) = [E_1; E_2] \cup \{z \in \mathbb{C} \setminus [E_1; E_2] : \Delta_\mu^{(1)}(z) = 0\};$$
$$\sigma(h_\lambda^{(2)}) = [E_1; E_2] \cup \{z \in \mathbb{C} \setminus [E_1; E_2] : \Delta_\lambda^{(2)}(z) = 0\}$$
tengliklar o‘rinli bo‘ladi.

Faraz qilaylik, $a \in \mathbb{R}$ bo‘lsin. L Hilbert fazosida ta’sir qiluvchi chiziqli, chegaralangan, o‘z-o‘ziga qo‘shma A operator uchun $L_A(a)$ orqali istalgan $f \in L_A(a)$ larda $(Af, f) \le a\|f\|^2$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi funksiyalar qism fazosini belgilaymiz hamda $N(a, A)$ sonini
$$N(a, A) = \sup_{L_A(a)} \dim L_A(a)$$
kabi aniqlaymiz.

Agar $a > \sigma_{\text{ess}}(A)$ bo‘lsa, u holda $N(a, A)$ soni cheksizga teng bo‘ladi, agar $N(a, A)$ chekli bo‘lsa, u holda bu son A operatorning a dan kichik (karraligi bilan hisoblaganda) xos qiymatlari soniga teng bo‘ladi.

supp $v(\cdot)$ orqali $v(\cdot)$ funksiya tashuvchisini, $\text{mes}(\Omega)$ orqali $\Omega \subset \mathbb{T}^{\text{d}}$ to‘plamning Lebeg o‘lchovini belgilaymiz.

1-teorema. *A) $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli E_1 dan chapda va E_2 dan o‘ngda ko‘pi bilan bittadan sodda xos qiymatga ega.*

B) Agar
$$\text{mes}(\text{supp}\{v_1(\cdot)\} \cap \text{supp}\{v_2(\cdot)\}) = 0 \qquad (1)$$
bo‘lsa, u holda $z \in \mathbb{C} \setminus [E_1; E_2]$ soni $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining xos qiymati bo‘lishi uchun $z \in \mathbb{C} \setminus [E_1; E_2]$ soni $h_\mu^{(1)}$ va $h_\lambda^{(2)}$ operatorlardan birining xos qiymati bo‘lishi zarur va yetarlidir.

1-eslatma. $h_\mu^{(1)}$ va $h_\lambda^{(2)}$ operatorlarning aniqlanishidan ko‘rinib turibdiki, ular $h_{\mu,\lambda}$ ga nisbatan sodda ko‘rinishga ega. Shu sababli, 1-teorema $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining odatdagi va bo‘sag‘aviy xos qiymatlarini, virtual sathlarini hamda sonli tasvirini o‘rganishga muhim ahamiyat kasb etadi.

1-natija. *Agar* (1) *shart bajarilsa, u holda*
$$\sigma_{\text{disc}}(h_{\mu,\lambda}) = \sigma_{\text{disc}}(h_\mu^{(1)}) \cup \sigma_{\text{disc}}(h_\lambda^{(2)})$$
tenglik o‘rinli bo‘ladi.

$I_{\alpha\alpha}(\cdot)$, $\alpha = 1, 2$ funksiya $(-\infty; E_1)$ va $(E_2; +\infty)$ oraliqlarda monoton o‘suvchi bo‘lganligi uchun Lebeg integrali ostida limitga o‘tish haqidagi teoremaga ko‘ra
$$I_{11}(E_1) = \lim_{z \to E_1 - 0} I_{11}(z), \quad I_{22}(E_2) = \lim_{z \to E_2 + 0} I_{22}(z)$$
chekli yoki cheksiz limitlar mavjud bo‘ladi.

Ushbu
$$|I_{\alpha\alpha}(E_\alpha)| < +\infty, \quad \alpha = 1, 2$$
shart bajarilganda quyidagicha
$$\mu_0 = (I_{11}(E_1))^{-1}, \quad \lambda_0 = -(I_{22}(E_2))^{-1}$$
belgilash kiritamiz.

Quyidagi teorema $h_{\mu}^{(1)}$ operator xos qiymatlari to'plamini ifodalaydi.

2-teorema. *A) Agar $I_{11}(E_1)=+\infty$ bo'lsa, u holda $\mu>0$ parametrning barcha qiymatlarida $h_{\mu}^{(1)}$ operator E_1 dan chapda yotuvchi yagona xos qiymatga ega bo'ladi.*

B) Faraz qilaylik, $I_{11}(E_1)<+\infty$ bo'lsin.

B_1) Agar $0<\mu\le\mu_0$ bo'lsa, u holda $h_{\mu}^{(1)}$ operator $(-\infty;E_1)$ oraliqda xos qiymatlarga ega emas;

B_2) agar $\mu>\mu_0$ bo'lsa, u holda $h_{\mu}^{(1)}$ operator E_1 dan chapda yotuvchi yagona xos qiymatga ega.

C) $\mu>0$ parametrning barcha qiymatlarida $h_{\mu}^{(1)}$ operator $(E_2;+\infty)$ oraliqda yotuvchi xos qiymatlarga ega emas.

Quyidagi teorema $h_{\lambda}^{(2)}$ operator xos qiymatlari to'plamini ifodalaydi.

3-teorema. *A) Agar $I_{22}(E_2)=-\infty$ bo'lsa, u holda $\lambda>0$ parametrning barcha qiymatlarida $h_{\lambda}^{(2)}$ operator E_2 dan o'ngda yotuvchi yagona xos qiymatga ega bo'ladi.*

B) Faraz qilaylik, $|I_{22}(E_2)|<+\infty$ bo'lsin.

B_1) Agar $0<\lambda\le\lambda_0$ bo'lsa, u holda $h_{\lambda}^{(2)}$ operator $(E_2;+\infty)$ oraliqda xos qiymatlarga ega emas;

B_2) agar $\lambda>\lambda_0$ bo'lsa, u holda $h_{\lambda}^{(2)}$ operator E_2 dan o'ngda yotuvchi yagona xos qiymatga ega.

C) $\lambda>0$ parametrning barcha qiymatlarida $h_{\lambda}^{(2)}$ operator $(-\infty;E_1)$ oraliqda yotuvchi xos qiymatlarga ega emas.

2-natija. *A) Faraz qilaylik, (1) shart bajarilib, $\left|I_{\alpha\alpha}(E_{\alpha})\right|=+\infty,\ \alpha=1,2$ bo'lsin, u holda $\mu>0$ va $\lambda>0$ parametrning barcha qiymatlarida $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli E_1 dan chapda, E_2 dan o'ngda yotuvchi bittadan oddiy xos qiymatlari mavjud.*

B) Faraz qilaylik, (1) shart bajarilib, $\left|I_{\alpha\alpha}(E_{\alpha})\right|<+\infty,\ \alpha=1,2$ bo'lsin.

B_1) Agar $0<\mu\le\mu_0$ va $0<\lambda\le\lambda_0$ bo'lsa, u holda $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli o'zining muhim spektridan tashqarida yotuvchi xos qiymatlarga ega emas;

B_2) agar $0<\mu\le\mu_0$ va $\lambda>\lambda_0$ bo'lsa, u holda $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli E_2 dan o'ngda yotuvchi bitta oddiy xos qiymati mavjud;

B_3) agar $\mu>\mu_0$ va $0<\lambda\le\lambda_0$ bo'lsa, u holda $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli E_1 dan chapda yotuvchi bitta oddiy xos qiymati mavjud;

B_4) agar $\mu>\mu_0$ va $\lambda>\lambda_0$ bo'lsa, u holda $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli E_1 dan chapda, E_2 dan o'ngda yotuvchi bittadan oddiy xos qiymatlari mavjud.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida $d=3$ hol qaralgan bo'lib, $u(\cdot)$ funksiya $p_1\in\mathbb{T}^3$ nuqtada yagona aynimagan minimumga va $p_2\in\mathbb{T}^3$ nuqtada yagona aynimagan maksimumga ega bo‘lsin deb faraz qilinadi. Bundan tashqari, v_α funksiya $p_\alpha \in \mathbb{T}^3$, $\alpha = 1,2$ atrofida 3-tartibligacha uzluksiz xususiy hosilalarga ega bo‘lishini talab qilamiz.

$C(\mathbb{T}^3)$ va $L_1(\mathbb{T}^3)$ orqali mos ravishda $\mathbb{T}^3$ torda aniqlangan uzluksiz va integrallanuvchi funksiyalar Banax fazosini belgilaymiz.

1-ta’rif. *Faraz qilaylik,* (1) *shart bajarilsin. Agar* 1 *soni*

$$(G_\alpha \psi_\alpha)(p) = \int_{\mathbb{T}^3} \frac{\mu v_1(p) v_1(t) - \lambda v_2(p) v_2(t)}{u(t) - E_\alpha} \psi_\alpha(t) dt, \quad \psi \in C(\mathbb{T}^3)$$

integral operatorning xos qiymati bo‘lib, hech bo‘lmaganda bitta ψ_α mos xos funksiya $\psi_\alpha(p_\alpha) \neq 0$ shartni qanoatlantirsa, u holda $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli $z = E_\alpha$ nuqtada virtual sathga (E_α *energiyali rezonansga*) *ega deyiladi.*

Ta’kidlash joizki, agar $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli $z = E_\alpha$ nuqtada virtual sathga ega bo‘lsa, u holda $G_\alpha \psi_\alpha = \psi_\alpha$ tenglamaning yechimi o‘zgarmas son aniqligida $v_\alpha(\cdot)$ funksiyaga teng bo‘ladi. 1-ta’rifdagi G_α operatorning 1 ga teng xos qiymatining mavjudligi $h_{\mu,\lambda} f_\alpha = E_\alpha f_\alpha$ tenglama yechimining mavjudligiga mos keladi, $\psi_\alpha(p_\alpha) \neq 0$ shartdan esa bu tenglamaning f_α yechimi $L_2(\mathbb{T}^3)$ fazoda tegishli bo‘lmasligi kelib chiqadi. Aniqroq qilib aytganda, agar $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli $z = E_\alpha$ nuqtada virtual sathga ega bo‘lsa, u holda

$$f_\alpha(p) = (-1)^{\alpha+1} \frac{v_\alpha(p)}{u(p) - E_\alpha} \tag{2}$$

funksiya $h_{\mu,\lambda} f_\alpha = E_\alpha f_\alpha$, $f_\alpha \in L_1(\mathbb{T}^3) \setminus L_2(\mathbb{T}^3)$ tenglamani qanoatlantiradi.

Agar $z = E_\alpha$ soni $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining xos qiymati bo‘lsa, u holda (2) formula bilan aniqlangan f_α funksiya $h_{\mu,\lambda} f_\alpha = E_\alpha f_\alpha$, $f_\alpha \in L_2(\mathbb{T}^3)$ tenglamani qanoatlantiradi.

4-teorema. *A) Faraz qilaylik,* (1) *shart bajarilsin va $\lambda > 0$ ixtiyoriy son bo‘lsin.*

A_1) $z = E_1$ soni $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining xos qiymati bo‘lishi uchun $\mu = \mu_0$ va $v_1(p_1) = 0$ bo‘lishi zarur va yetarlidir;

A_2) $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli $z = E_1$ nuqtada virtual sathga ega bo‘lishi uchun $\mu = \mu_0$ va $v_1(p_1) \neq 0$ bo‘lishi zarur va yetarlidir.

B) Faraz qilaylik, (1) *shart bajarilsin va $\mu > 0$ ixtiyoriy son bo‘lsin.*

B_1) $z = E_2$ soni $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining xos qiymati bo‘lishi uchun $\lambda = \lambda_0$ va $v_2(p_2) = 0$ bo‘lishi zarur va yetarlidir;

B_2) $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli $z = E_2$ nuqtada virtual sathga ega bo‘lishi uchun $\lambda = \lambda_0$ va $v_2(p_2) \neq 0$ bo‘lishi zarur va yetarlidir.

Faraz qilaylik, $\mathcal{H}$ kompleks Hilbert fazosi, $A : \mathcal{H} \to \mathcal{H}$ chiziqli operator bo‘lib, $D(A) \subset \mathcal{H}$ uning aniqlanish sohasi bo‘lsin.

2-ta'rif. *Quyidagi*

$$W(A) := \{(Ax, x) : x \in D(A), \|x\| = 1\}$$

tenglik yordamida aniqlangan to'plamga A chiziqli operatorning sonli tasviri deyiladi, bunda $(\cdot,\cdot)$ orqali $\mathcal{H}$ kompleks Hilbert fazosidagi skalyar ko'paytma belgilangan.

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, $W(A)$ to'plam kompleks tekislikning qism to'plami bo'ladi va $W(A)$ to'plamning geometrik xossalari A operator haqida ayrim ma'lumotlarni olish imkonini beradi[2].

Sonli tasvir tushunchasi birinchi marotaba matritsalar uchun Tyoplitz tomonidan kiritilgan va o'rganilgan[3]. Tyoplitz matritsaning sonli tasviri uning barcha xos qiymatlarini o'zida saqlashi va sonli tasvir chegarasi qavariq chiziq bo'lishini isbotlagan. Xausdorfning ishida esa $W(A)$ to'plamning qavariq to'plam bo'lishi isbotlangan[4]. Keyinchalik bu xossalar nafaqat matritsalar uchun balki istalgan chiziqli chegaralangan operatorlar uchun o'rinli bo'lib, bunday operatorlarning spektri $\overline{W(A)}$ to'plamning yopig'ida yotishi isbotlangan[5].

$h^{(1)}_{\mu}$ va $h^{(2)}_{\lambda}$ Fridrixs modellarining xos qiymatlari mavjud bo'lgan holda ularni mos ravishda $E_1(\mu)$ va $E_2(\lambda)$ orqali belgilaymiz. Bunda $E_1(\mu) < E_1$ va $E_2(\lambda) > E_2$.

I hol. $d = 1,2$ bo'lsin.

5-teorema. *Faraz qilaylik,* (1) *shart bajarilib,* $v_\alpha(p_\alpha) \neq 0,\ \alpha = 1,2$ *bo'lsin. U holda ixtiyoriy* $\mu > 0$ *va* $\lambda > 0$ *lar uchun* $h_{\mu,\lambda}$ *Fridrixs modelining sonli tasviri uchun*

$$W(h_{\mu,\lambda}) = [E_1(\mu); E_2(\lambda)]$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Quyidagi teorema $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining sonli tasviri yopig'ining tuzilishini tavsiflaydi.

6-teorema. *Faraz qilaylik,* (1) *shart bajarilib,* $v_\alpha(p_\alpha) = 0,\ \alpha = 1,2$ *bo'lsin.*

A) Agar $0 < \mu \le \mu_0$ *va* $0 < \lambda \le \lambda_0$ *bo'lsa, u holda* $\overline{W(h_{\mu,\lambda})} = [E_1; E_2]$ *tenglik o'rinli bo'ladi.*

B) Agar $0 < \mu \le \mu_0$ *va* $\lambda > \lambda_0$ *bo'lsa, u holda* $\overline{W(h_{\mu,\lambda})} = [E_1; E_2(\lambda)]$ *tenglik bajariladi.*

C) Agar $\mu > \mu_0$ *va* $0 < \lambda \le \lambda_0$ *bo'lsa, u holda* $\overline{W(h_{\mu,\lambda})} = [E_1(\mu); E_2]$ *tenglik o'rinli bo'ladi.*

D) Agar $\mu > \mu_0$ *va* $\lambda > \lambda_0$ *bo'lsa, u holda* $W(h_{\mu,\lambda}) = [E_1(\mu); E_2(\lambda)]$ *tenglik bajariladi.*

---

[2] Gustafson K.E., Rao D.K.M. Numerical range. The field of values of linear operators and matrices. Universitext. Springer, New York, 1997.

[3] Toeplitz O. Das algebraische Analogon zu einem Satze von Fejer. Math. Z., **2**:1-2 (1918). – Pp. 187-197.

[4] Hausdorff F. Der Wertvorrat einer Bilinearform. Math. Z., **3**:1 (1919). – Pp. 314-316.

[5] Wintner A. Zur Theorie der beschrankten Bilinearformen. Math. Z., **30**:1 (1929). – Pp. 228-281.

3-natija. *Faraz qilaylik,* (1) *shart bajarilib,* $v_1(p_1)\neq 0$ *va* $v_2(p_2)=0$ *bo'lsin.*

A) *Agar* $0<\lambda\leq\lambda_0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mu>0$ *uchun* $\overline{W(h_{\mu,\lambda})}=[E_1(\mu);E_2]$ *bo'ladi.*

B) *Agar* $\lambda>\lambda_0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mu>0$ *uchun* $W(h_{\mu,\lambda})=[E_1(\mu);E_2(\lambda)]$ *bo'ladi.*

4-natija. *Faraz qilaylik,* (1) *shart bajarilib,* $v_1(p_1)=0$ *va* $v_2(p_2)\neq 0$ *bo'lsin.*

A) *Agar* $0<\mu\leq\mu_0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\lambda>0$ *uchun* $\overline{W(h_{\mu,\lambda})}=[E_1;E_2(\lambda)]$ *bo'ladi.*

B) *Agar* $\mu>\mu_0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\lambda>0$ *uchun* $W(h_{\mu,\lambda})=[E_1(\mu);E_2(\lambda)]$ *bo'ladi.*

II hol. $d\geq 3$ bo'lgan holda $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modelining sonli tasvirini tadqiq qilamiz.

7-teorema. *Faraz qilaylik,* (1) *shart bajarilsin.*

A) *Agar* $0<\mu\leq\mu_0$ *va* $0<\lambda\leq\lambda_0$ *bo'lsa, u holda* $\overline{W(h_{\mu,\lambda})}=[E_1;E_2]$ *bo'ladi.*

B) *Agar* $0<\mu\leq\mu_0$ *va* $\lambda>\lambda_0$ *bo'lsa, u holda* $\overline{W(h_{\mu,\lambda})}=[E_1;E_2(\lambda)]$ *bo'ladi.*

C) *Agar* $\mu>\mu_0$ *va* $0<\lambda\leq\lambda_0$ *bo'lsa, u holda* $\overline{W(h_{\mu,\lambda})}=[E_1(\mu);E_2]$ *bo'ladi.*

D) *Agar* $\mu>\mu_0$ *va* $\lambda>\lambda_0$ *bo'lsa, u holda* $W(h_{\mu,\lambda})=[E_1(\mu);E_2(\lambda)]$ *bo'ladi.*

$d=3$ bo'lsin.

8-teorema. *Faraz qilaylik,* (1) *shart bajarilib,* $\mu=\mu_0,\ \lambda=\lambda_0$ *bo'lsin.*

A) *Agar* $v_\alpha(p_\alpha)=0,\ \alpha=1,2$ *bo'lsa, u holda* $W(h_{\mu,\lambda})=[E_1;E_2]$ *bo'ladi.*

B) *Agar* $v_1(p_1)=0$ *va* $v_2(p_2)\neq 0$ *bo'lsa, u holda* $W(h_{\mu,\lambda})=[E_1;E_2)$ *bo'ladi.*

C) *Agar* $v_1(p_1)\neq 0$ *va* $v_2(p_2)=0$ *bo'lsa, u holda* $W(h_{\mu,\lambda})=(E_1;E_2]$ *bo'ladi.*

D) *Agar* $v_\alpha(p_\alpha)\neq 0,\ \alpha=1,2$ *bo'lsa, u holda* $W(h_{\mu,\lambda})=(E_1;E_2)$ *tenglik o'rinli.*

Shuni ta'kidlash joizki, agar $\mu=\mu_0,\ \lambda=\lambda_0$ va $v_\alpha(p_\alpha)=0,\ \alpha=1,2$ bo'lsa, u holda $z=E_\alpha$ soni $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli uchun bo'sag'aviy xos qiymat bo'ladi. Agar $\mu=\mu_0,\ \lambda=\lambda_0$ va $v_\alpha(p_\alpha)\neq 0,\ \alpha=1,2$ bo'lsa, u holda $z=E_\alpha$ soni $h_{\mu,\lambda}$ Fridrixs modeli uchun virtual sath bo'ladi.

Dissertatsiyaning "**Panjaradagi uch zarrachali sistemaga mos model operatorning spektral xossalari**" deb nomlangan uchinchi bobida panjaradagi uchta zarrachali sistemaga mos $H_{\mu,\lambda}$ model operatorning muhim spektri va xos qiymatlarining mavjudlik shartlari topilgan.

$L_2^{s}((\mathbb{T}^{d})^2)$ orqali $(\mathbb{T}^{d})^2$ to'plamda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda kompleks qiymatlarni qabul qiluvchi) simmetrik funksiyalarning Hilbert fazosini belgilaymiz.

$L_2^{s}((\mathbb{T}^{d})^2)$ Hilbert fazosida ta'sir qiluvchi va

$$H_{\mu,\lambda}:=H_{0,0}-\mu(V_{11}+V_{12})+\lambda(V_{21}+V_{22}),\quad \mu,\lambda>0 \tag{3}$$

tenglik orqali aniqlanuvchi model operatorni qaraymiz. Bunda $\mu,\lambda>0$ ta'sirlashish parametrlari, $H_{0,0}$ operator $L_2^{\mathrm{s}}((\mathbb{T}^{\mathrm{d}})^2)$ Hilbert fazosidagi $\omega(\cdot,\cdot)$ funksiyaga ko'paytirish operatori:

$$(H_{0,0}f)(p,q)=\omega(p,q)f(p,q).$$

$V_{ij},\ i,j=1,2$ operatorlar esa $L_2((\mathbb{T}^{\mathrm{d}})^2)$ Hilbert fazosidagi lokal bo'lmagan potensial operatorlar:

$$(V_{i1}f)(p,q)=v_i(p)\int_{\mathbb{T}^{\mathrm{d}}}v_i(t)f(t,q)dt,\quad (V_{i2}f)(p,q)=v_i(q)\int_{\mathbb{T}^{\mathrm{d}}}v_i(t)f(p,t)dt.$$

$\omega(\cdot,\cdot)$ funksiya $(\mathbb{T}^{\mathrm{d}})^2$ da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzluksiz, simmetrik funksiya. $v_i(\cdot),\ i=1,2$ funksiyalar esa $\mathbb{T}^{\mathrm{d}}$ torda aniqlangan haqiqiy qiymatli uzluksiz funksiyalar.

